

**MAVZU : Pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning
o‘qituvchi faoliyatidagi tutgan o‘rni.**

REJA:

- 1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida o‘qituvchi faoliyati mazmuniga qo‘yiladigan talablar.**
- 2. O‘qituvchilik kasbining ijtimoiy-tarixiy rivoji va mazkur kasbning jamiyatda tutgan o‘rni.**
- 3. Pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari.**
- 4. Pedagogik mahorat-sistemasi va uning tashkil etuvchilari.**
- 5. Xulosa.**
- 6. Foydalanilgan adabiyotlar**

**1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni hamda
“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida o‘qituvchi faoliyati
mazmuniga qo‘yiladigan talablar.**

Prezidentimiz I.A.Karimov o‘z nutqlarida yoshlarga katta ishonch bildirib, O‘zbekiston kelajagi yoshlar qo‘lida ekanligini ta’kidlar ekan, avvalo yoshlarni shunday ishonchga javob bera oladigan insonlar qilib etishtirish o‘qituvchi va tarbiyachilarning fidokorona mehnati bilan bog‘liqligini nazarda tutadi.

Jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama etuq, komil insonni tarbiyalashda o‘qituvchining o‘rni beqiyosdir.

Prezidentimiz o‘zining qator nutqlari va asarlarida ta’lim-tarbiya masalalariga to‘xtalganda, o‘qituvchini e’tibordan chetda qoldirmaydi.

I.A.Karimov Oliy Majlis IX sessiyasida so‘zlagan «Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori» mavzuidagi nutqida, jamiyatimizda ta’lim berish tizimi, yangilanish jarayoni talablari bilan yaqindan bog‘lanmaganligi sabablaridan biri o‘qituvchiga borib taqalishini aytib o‘tadi: *«Tarbiyachilarning o‘ziga zamonaviy ta’lim berish ularning ma’lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo‘lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz».*

Bizning fikrimizcha, ta’lim-tarbiya tizimini o‘zgartirishdagi asosiy muammo ham mana shu erda. **O‘qituvchi** bolalarimizga zamonaviy bilim

bersin, deb talab qilamiz, ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak.

Bundan ko'rinadiki, o'qituvchi avvalo zamonaviy bilim bilan qurollangan bo'lishi lozim.

Eski ta'lim tizimining yana bir qusuri, boshlang'ich ta'limga ikkinchi darajali ish deb qarayottanligimizdadir, — deydi prezidentimiz: **«Ochiq aytishimiz kerak: bilimi sayoz muallimlar birinchi sinfda dars beraveradi»**.

Boshlang'ich ta'limga past nazar bilan qaralishining isboti shO'qi, sobiq SSSRda butun boshli pedagogika texnikumlari va bilim yurtlari tizimi tashkil etilib, ular asosan 1-4 sinf o'quvchilarni o'qitadigan muallimlar tayyorlar edi.

Vaholanki, bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlang'ich sinflarga eng etO'q, eng tajribali murabbiylarni biriktirib qo'yilishi oddiy mantiqning o'zini talab etadi.

Prezidentimiz qo'yayotgan yana bir talab demak, boshlang'ich sinflarga eng etO'q, tajribali o'qituvchilarni qo'yish.

I.A.Karimov o'zining qator asarlarida ta'lim - tarbiya sohasidagi islohotlarimizning mazmuni erkin, mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilishini ta'kidlab o'tadi. Bu jarayonda o'qituvchi - o'quvchi munosabatini o'zgartirish talab etiladi. YUrtboshimiz: "Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'limi va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak" - deyish bilan maktablarda mustaqil fikrlashga o'rgatilmayottanligiga ham to'xtalib o'tadi.

Maboda biror o'quvchi o'qituvchiga e'tiroz bildirsa, ertaga u hech kim havas qilmaydigan ahvolga tushib qoladi. Maktablardagi jarayonda o'qituvchi hO'qmron. U boladan faqat o'zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishni talab qiladi. Prinstip ham tayyor: *"Mening aytanim aytgan deganim - degan"*.

Hozirda o'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashi juda qiyin kechayapti.

Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi.

Uqituvchiga qo'yiladigan yana bir muhim talab, yangi pedagogik texnologiyalarni chuqur tushunib etib va bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdan iborat.

Prezidentimiz Oliy Majlis XI sessiyasida so'zlagan "Konstitustiyamiz inson manfaati uchun xizmat qilsin" nutqida tarbiyachi va o'qituvchilarni O'zbekistonda bo'layotgan turli xavflardan yoshlarni himoya qiluvchi bo'lib maydonga chiqishga chaqiradi: "Olimlarimiz, ta'lim tarbiya dargohlarining tarbiyachilari, o'qituvchilari O'zbekistonga bo'lgan xavf va taxdidlarni to'g'ri tahlil qilib, bolalarimiz taqdiri uchun birinchi navbatda yonib harakat qilishi, bolalarimizni bunday yovo'z xavfdan himoya qilish zarur". (Barkamol avlod orzusi 77-bet).

Ta'lim to'g'risidagi qonunning 5-moddasida "kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega" ekanligi ta'kidlanadi.

Qonun, kadrlar tayyorlash milliy dasturi va hozirgi kunimiz talabi bo'yicha o'qituvchiga qo'yilgan talablar ham kengayib, murakkablashib bormoqda.

O'qituvchilik kasbi o'z mohiyatiga ko'ra o'ta individualdir.

Har bir o'qituvchining muhim hayotiy o'rnini o'z ishining ustasi bo'lishdir.

O'qituvchi mahorati uning faoliyatida ko'rinadi. o'qituvchi avvalo pedagogik jarayonning qonuniyatlari va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo'lishi lozim. SHu ma'noda pedagogning umumlashgan malakalari, uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga molik bo'ladi.

Mahorat – bu alohida qudrat. YUqori va kichik darajada Usta bo'lishi mumkin emas. Mahoratga erishish ham, erishmaslik ham mumkin. Haqiqiy usta mehnat faoliyati chog'idagina go'zaldir.

Pedagogik mahoratga etishish o'qituvchining muayyan shaxsiy sifatlari bilan amalga oshadi.

Pedagogik mahorat yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqarolik va kasbiy mavqeini ifodalaydi.

Pedagogik mahorat haqida tushuncha

«**Pedagogik mahorat**» bir kategoriya sifatida o'zining ilmiy asoslariga ega. 1987-1997 yillardagi ilmiy yondashuvlar bu favqulodda hodisaga nisbatan quyidagicha xulosa qilishga imkon berdi:

Pedagogik mahorat kasbiy faoliyatdagi individuallikning yorqin ko'rinishi sifatida tushuniladi.

Pedagogik mahorat kategoriyasi kasbiy faoliyat nuqtai nazardan kishining individualligini xarakterlaydi.

Hozirgi tadqiqotlarda pedagogik mahoratning o'ziga xosligi quyidagi kategoriyalarda jamlanadi:

Pedagogik mahorat (A.S.Belkin, V.I.Zagvyazinskiy, N.P.Lebednik, I.A. Zyazyun, T.F.Kuzina, N.V.Kuxarev, S.B.Elkanov, A.K. Markova);

Pedagogik ijod (V.V. Belich, V.I.Zagvyazinskiy, V.A. Kan-Kalik, N.D.Nikandrov, A.K. Markova, T.V. Frolova, T.Kaloshina, G.F. Poxmelkina, S.YU. Stepanov);

Novatorlik (V.I.Zagvyazinskiy, A.K.Markova);

Kasbiy bilimdonlik (I.A.Zyazyun, N.P.Lebednik, A.K.Markova);

Faoliyat uslubi (A.K.Markova);

Innovatsion faoliyat (E.P.Morozov, P.I. Pidkasistiy, N.V.YUsufbekova);

Pedagogik texnologiya (N.E. SHurkova, V.YU. Pityukov, E.A.Osipova);

Mahorat (N.V. Kuzmina, T.V.Frolova, T.YU.Kaloshina, G.F.Poxmelkina, S.YU.Stepanova).

Turli tadqiqotchilar ishlarida ayni bir hodisani tavsiflash uchun turlicha tushunchalardan foydalanish boshqacha ma'no va mazmun tomonlariga ega.

Turli muallif asarlarida pedagogik mahoratning yagona, tan olingan ta'rifining yo'qligi uni tadqiqotning jonli jarayoni deb xulosa chiqarishga asos bo'ladi.

Tushunchalar, fikrlarning turli-tumanligi bu hodisaning murakkabligi va ko'p qirraliligidan dalolat beradi. Barcha ta'riflarda urg'u shaxsga beriladi va shu tariqa pedagogik mahoratning sotsial mohiyatini aks ettiradi.

I.A.Zyazyun va N.A.Lebedniklar shaxsning sotsial etukligi va kasbiy mahoratining o'zaro bog'liqligini isbotlab berdilar.

Mahorat talabalar tomonidan ularning sotsial etuklikka erishish darajasiga qarab bosqichma-bosqich egallanadi. Sotsial etuklik komponentlari pedagogik mahorat komponenti bilan quyidagi nisbatda bo'ladi.

Bo'lg'usi pedagogning sotsial etuklik komponentlariga ushbular kiradi:

- *sotsial o'z-o'zini belgilash* - o'zining pedagogik qobiliyatlari va e'tiqodini namoyon qilish;

- *sotsial faollik* – odamlar bilan ishlay olish va boshqalarni tarbiyalash tajribasini takomillashtirish;

- *sotsial mas'uliyat* - o'qituvchining bilimdonligiga aylanadigan bilimlar.

Pedagogik mahorat komponentlari N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin, I.A.Zyazyun, V.I.Zagvyazinskiy, G.I.Xozyainov, T.F.Kuzina, A.I.Myashenko, N.P.Lebednik, T.Noyner, YU.K.Babanskiy, N.V.Kuxarevlarning tadqiqotlarida o'rganilgan. Ular pedagogik mahoratning asosiy yo'nalishlarini muayyan mantiqiy izchillikda belgilab berdilar.

Pedagogik mahorat asoslariga: kasbiy pedagogik bilimlar, insonparvarlikka yo'nalganlik, pedagogik texnika, kasbiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish tajribasi, pedagog shaxsi taalluqlidir.

Mahoratning shakllanish bosqichlariga: reproduktivlik (boshlang'ich), ijodiylik, ijodiy-novatorlik kiradi.

Pedagogik mahorat darajalari o'qituvchi ish darajasining davomi hisoblanadi:

- *reproduktiv (o‘ta past)*;
- *moslashuvchan (past)*;
- *lokal (chegaralangan)- modellashtirish (o‘rtacha qoniqarli)*.

Bu daraja talabalar bilan bo‘ladigan o‘quv-tarbiya ishlarining ayrim yo‘nalishlarida yuqori sifati bilan xarakterlanadi:

• *izchil modellashtirish (yuqori)*. Bu bosqichda, pedagog faoliyatining barcha turlarida yuqori sifatga erishiladi;

• *izchil modellashtirish (oliy)*. Bunda, faoliyatning barcha turlarida ijodiy munosabat namoyon bo‘ladi, o‘quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish yo‘llari izlanadi. Pedagogik mahorat komponentlari kasbiy faoliyatga kasbiy vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan malaka nuqtai nazardagi qarashlarni aks ettiradi.

Tadqiqotchilar malaka deganda xatti-harakatlar tizimini uni amalga oshirish maqsadi va shart-sharoiti bilan muvofiq ravishda samarali bajarish imkoniyatini tushunadilar.

Pedagogik mahorat komponentlarini hosil qiladigan quyidagi malaka guruhlari farqlanadi:

- *loyihalash*;
- *konstruksiyalash*;
- *tashkilotchilik*;
- *muloqot*;
- *bilish va reflektivlik*.

Keyingi yillarda pedagogik mahorat kategoriyasiga nisbatan yangicha qarashlar paydo bo‘ldi. Pedagogik mahoratning an‘anaviy izohlaridan bir qadar chekinish ham yuz berdi (I.A.Zyazyun, N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin).

Pedagog tadqiqotchilarning Sankt-Peterburg maktabi pedagogik mahoratni kishining alohida holati – ya’ni uning kasbiy mashg‘uloti keng

ma'noda kishilar bilan ishlashning o'ziga xos sohasi bo'lgan pedagogika hisoblanadi, deb tavsiflaydi.

Pedagogik mahoratning asosi **pedagogik bilimdonlikdir**.

Pedagogik bilimdonlik deganda konkret tarixiy davrda qabul qilingan me'yorlar (normalar), standartlar va talablarga muvofiq pedagogik vazifani bajarishga qobiliyat va tayyorlik bilan belgilanadigan integral kasbiy-shaxsiy tavsifnoma tushuniladi.

Pedagogik bilimdonlik pedagogik sohada mahorat bilan ishlayotgan kishining ta'lim va tarbiya ishida insoniyat to'plagan barcha tajribalardan ratsional foydalanish qobiliyatini ko'zda tutar ekan, demak, u etarli darajada pedagogik faoliyat va munosabatlarning maqsadga muvofiq usullari va shakllarini egallashi lozim bo'ladi.

Kasbiy-pedagogik bilimdonlikning bosh ko'rsatkichi bu insonga, shaxsga yo'nalganlikdir.

Kasbiy-pedagogik bilimdonlik pedagogik voqelikni izchil idrok eta bilish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi. Bu xislat pedagogik jarayon mantig'ining yaxlitligicha va butun tuzilmasi bilan birgalikda ko'ra olish, pedagogik tizimning rivojlanish qonuniyatlari va yo'nalishlarini tushunish imkoniyatini ta'minlaydi, maqsadga muvofiq faoliyatni konstruksiyalashni osonlashtiradi.

Bilimdonlik o'qituvchi uchun o'ta muhim bo'lgan uchta holat bilan bog'langan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallashni taqozo etadi:

- *odamlar bilan o'zaro aloqada bo'lishda, madaniy muloqotda bo'lish;*
- *fani sohasi bo'yicha axborotlarni qabul qila bilish va uni o'qitish mazmuniga moslab qayta ishlash va undan mustaqil tahsil olishda foydalana olish;*
- *o'quv axborotlarini boshqalarga bera olish.*

Kasbiy-pedagogik bilimdonlik asosan to'rtta komponenti bilan xarakterlanadi:

- *shaxsga, insonga yo 'nalganlik;*
- *pedagogik voqelikni izchil idrok etish;*
- *fan sohasiga yo 'nalganlik;*
- *pedagogik texnologiyalarni egallash.*

Hozirgi ta'lim sharoitida kasbiy-pedagogik bilimdonlik yana uch komponent bilan to'ldiriladi:

- *bilimdonlik, umuman, o'z faoliyatini jahon pedagogik madaniyati darajasida ishlab chiqilgan tajribalar asosida tashkil etish qobiliyati, unga va vatanimizdagi pedagogikaga integratsiyalasha olish;*
- *o'z safdoshi tajribasi va innovatsion tajribalar bilan o'zaro samarali munosabat o'rnatish qobiliyati;*
- *o'z tajribalarini umumlashtirish va boshqalarga bera olish malakasida namoyon bo'ladi.*

Pedagogning kasbiy bilimdonligi kreativlik bilan xarakterlanadi.

Kreativlik – bu kasbiy hayot usuli, ko'p qirrali ta'lim jarayoni va tizimining maqsadlari, mazmuni, texnologiyalari sathida yangi pedagogik voqelikni yaratish istagi va malakasidir. Kreativlik o'qituvchiga innovatsion o'zgarishlar oqimiga moslashib olishiga yordam beradi.

Har qanday darajadagi kasbiy bilimdon pedagogik refleksiyaga qodirdir.

Refleksiya – fikrlashning maxsus usuli bo'lib, pedagogik voqelikka, tarixiy-pedagogik tajribaga, muayyan kasbiy mavqening tashuvchisi bo'lgan o'z shaxsiyatiga qayta nazar tashlashdir.

YUqoridagi kasbiy-pedagogik bilimdonlikni tashkil etuvchi barcha komponentlar murakkab tuzilmani hosil qilib, mutaxassisning «ideal modeli»ni shakllantira boradi va pirovard natijada zich birlashib ketadi hamda o'qituvchi shaxsi faoliyati tavsifini belgilaydi.

Bilimdonlik faqat faoliyat jarayonida va faqat konkret kasb doirasida namoyon bo'ladi va baholanadi.

Pedagogik muhitda o'qituvchi faoliyatini baholashda, odatda, «**pedagogik madaniyat**» termini qo'llanadi.

Pedagogik madaniyat kasbiy faoliyatning individual mazmuni bilan bog'lanadi.

Pedagogik bilimdonlik o'qituvchining yuksak natijalarga erishishini ta'minlaydi.

Pedagogik madaniyat faoliyat va munosabatlarga estetik shakl beradi.

Pedagogik faoliyat pedagogik madaniyat tushunchasi tahlili omili bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik madaniyat umuman madaniyatning namoyon bo'lishidir.

Madaniyat faoliyat jarayoni va natijasi o'laroq sub'ektning dunyo ob'ektlarini o'zlashtira borishdagi barcha xatti-harakatlarini qamrab oluvchi sotsial hodisani bildiradi. Madaniyat inson yaratgan, shuningdek, qanday vosita va metod bilan yaratgan barcha hodisalarni o'zida birlashtiradi.

Pedagogik madaniyatda, umuman madaniyatda bo'lganidek, predmet-hosila va texnik-texnologik jihatlar mavjud.

Pedagogik madaniyat bir qator tizim hosil qiluvchi unsurlarga ega. Ularga quyidagilar kiradi:

Pedagogik loyihalash madaniyati. U ob'ektiv imkoniyatlar bilan talab va istaklarni o'zaro nisbatlagan holda maqsadni to'g'ri tanlay olish, vazifalarni belgilab olish, ularning echilish bosqichlarini rejalashtirish, zarur qurollarni tanlab olish malakasidir. Loyihalash madaniyatini namoyish qilish bu ijodga, ya'ni favqulodda yangini yaratish, o'rnatilgan me'yorlar va namunalar chegarasidan chiqib keta olish qobiliyati hamdir.

Bilimlilik madaniyati. U pedagogik bilimlarning turli-tumanligi va pedagog tomonidan bu bilimlarni egallashini bildiradi.

Dunyoqarash madaniyati. Uning darajasini aksariyat hollarda pedagog va o'qituvchining o'zaro munosabatlari jarayoni va natijalari belgilaydi.

Turli namunadagi dunyoqarashning mavjudligi, xususan, stixiyali, muntazam, ilmiy va mistik, irratsional, optimistik va pessimistik, dogmatik va

tanqidiy, diniy, ateistik, ratsional va pedagogik faoliyat sub'ekting ham bir necha namunasi borligini taqozo qiladi.

Dunyoqarash madaniyati fan, falsafa, din kabi ma'naviy madaniyat unsurlari bilan tanishish chog'ida shakllanadi.

Pedagogik madaniyatning bir unsuri **fikrlash madaniyatidir.**

Fikrlash madaniyati ham kundalik hayot jarayonida odatdagi vositalar, ham maxsus vositalar (uning tarkibiga formal mantiqni o'rganish ham kiradi) da vujudga keladi.

His etish madaniyati. U insonlar oliy kechinmalarining keng uyg'unligi hosilasi bo'lib, ularsiz pedagogik jarayonda muloqotning bo'lishi mumkin emas.

Baholash madaniyati u yoki bu sabab va hodisalar bo'yicha axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, diniy yoki falsafiy xarakterdagi malakali hukm chiqarish qobiliyatidir.

Muloqot madaniyati pedagogik madaniyatning eng muhim komponenti bo'lib, u pedagogning o'quvchilar, ota-onalar hamda rahbariyat yoki quyi vazifa egallovchi shaxslar, shuningdek, pedagogik ish doirasidan tashqaridagi barcha insonlar bilan muloqot qilish madaniyatlarini qamrab oladi.

Tashkiliy madaniyat ham pedagogik madaniyat tizimiga kiradi va u o'qitish hamda tarbiya jarayonini pedagogik doiraning turli darajalarida (jamiyatda, o'quv yurtlarida, bolalar guruhlarida) tashkil etish imkoniyatini beradi.

SHunday qilib, pedagogik mahoratning tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

- har bir o'quvchi uchun dolzarb bo'lgan hayotiy mazmun rivojlanishini, o'quvchining shu rivojlanish kesmasida, harakat qila olishida, uning hayot mazmunining ochilishi va amalga oshishida o'qituvchi qanday bilim bilan unga yordam ko'rsata olishini «ko'ra olish» qobiliyati;

- ayrim o'qituvchilar rivojlanish mazmuni va kesmasi integratsiyasi hisoblangan hamda jonli organizm sifatida o'quvchilar (sinf va b.) guruhini

uning rivojlanish va mazmun kasb eta borish jarayonida «ko'ra olish» qobiliyati;

- sinfning integral mazmuni va integral rivojlanish kesmasini «ko'rish» va idrok etish malakasi;

- o'zining organizmini yuksak darajada anglash. Sinf, o'quvchi o'z istaklari, motivlari, afzal ko'rishi jihatidan ular uchun zarur bo'lgan haqiqiy axborotlarni ajrata olish malakasi;

- shaxsiy xususiyatlar oqibati sifatida vujudga keladigan turli buzilish vaziyatlaridan idrokni chalg'itish;

- o'z sezgilarining nozik farqlanish imkoniyatlari vositasida yuqori his bilan boshqarish;

- keng boshqaruv repertuari, boshqarishning xilma-xil uslublari, axborotlarni uzatish «qurollari»: ovoz, xatti-harakat, mimika va boshqalarni egallash;

- kasbiy usullar va metodlarning keng jamg'armasi;

- metodologiyani egallash.

O'qituvchilik sharaflilik, lekin juda murakkab kasb. YAxshi o'qituvchi bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o'zigina etarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g'oyalar bayon etiladi, **o'qituvchining** yosh individual xususiyatlarini e'tiborga olish ta'kidlanadi. Maktab hayoti kichik pedagogik jarayon esa juda xilma - xildir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa o'qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab qiladi.

SHuning uchun hozirgi kun o'qituvchisi:

- pedagogik faoliyatga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon;

- milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mO'qammal egallagan, diniy ilmlardan ham xabardor, ma'naviy barkamol;

- *O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan, vatanparvarlik burchini to‘g‘ri anglagan, e‘tiqodli fuqaro;*
- *ixtisosga doir bilimlarni, psixologik, pedagogik bilim va mahoratni, shuningdek nazariy ilmlarni mO‘qammal egallagan;*
- *o‘qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi ko‘radigan, har bir o‘quvchi ulg‘ayib, yaxshi odam bo‘lishiga chin ko‘ngildan ishonadigan, ularning shaxs sifatida rivojlanib, inson sifatida kamol topishiga ko‘maklashadigan;*
- *erkin va ijodiy fikrlay oladigan, talabchan, adolatli, odobli bo‘lmog‘i darkor.*

Davlatimiz xalq ta’limi sohasida o‘rtaga qo‘yayogan vazifalarni bajarish ko‘p jihatdan o‘qituvchiga bog‘liq. Hozirgi kunda ta’lim - tarbiyadan ko‘zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o‘quvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e‘tiqodli, mehnatsevar, erkin fikrli, ongli barkamol inson qilib o‘stirish o‘qituvchi zimmasiga yuklatilgan.

«**Pedagogik mahorat**» **fanining maqsadi** pedagoglarga kasbiy ijod, mahorat malakalarini shakllantirish, pedagogik texnikani egallash to‘g‘risida tushuncha berishdan iborat.

Bu maqsad quyidagi vazifalarni echish orqali hal etiladi:

- pedagogik mahoratning nazariy-metodologik asoslari bilan qurollantirish:
- pedagogik mahoratning pedagogik texnika, pedagogik muloqot, pedagogik nazokat, pedagogik qobiliyat kabi tarkibiy qismlari haqidagi malakalarni echish:
- pedagogik mahoratni mustaqil shakllantirish ko‘nikmalarini hosil qilish:
- egallangan pedagogik-psixologik bilimlar asosida shaxsiy pedagogik mahoratni yaratish malakalarini hosil qilish:
- o‘z kasbiy mahoratini takomillashtirish uchun shaxsiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalari bilan o‘qituvchi-tarbiyachi, talabalarni tanishtirish.

Pedagogik mahorat-bu o‘qituvchi-tarbiyachining shunday shaxsiy (bolajonligi, hayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy, (bilimdonligi, zo‘qkoligi, fidoiyligi, ijodkorligi, erudistiyasi va h.k.)

fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o'z fanini chuqur va atroflicha bilishida, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarligida,

o'quvchi-yoshlarni o'qitish ,tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab-topib amaliy faoliyatida qo'llashida namoyon bo'ladi. SHunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'z o'quv predmetini davr talablari asosida bilishi, pedagogika, psixologiya, metodika fanlarini o'zlashtirishi hamda insoniylik va fidoiylikni o'zida tarkib toptirishga intilishi lozim. SHuni alohida qayd qilib o'tmoq zarurki, o'qituvchilik kasbi murakkab va qiyindir. Ushbu kasbning qiyin va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, u doimo tirik, ongi jonzot bilan muloqotda bo'ladi. Ongli va tirik jonzot esa ham aqliy, ham ruhiy, ham jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo'ladi. SHuning uchun o'quvchi bilan doimo muloqotda bo'lish, unga ta'sir ko'rsatish, undan psixologiya, tarbiya nazariyasini mO'qammal bilishni taqozo qiladi. Bu o'qituvchidan pedagogik-psixologik tayyorgarlikka ega bo'lish lozimligini ta'kidlaydi.

Enstiklopediyada yozilishicha "**Faoliyat** - atrofdagi olamga nisbatan insonning o'ziga xos aktiv munosabati shakli. Odamni maqsadga muvofiq va qayta o'zgartirish faoliyatning mazmunini tashkil etadi. Har qanday faoliyat maqsad, usul, natija va jarayonlardan iborat. Har qanday faoliyat singari o'qituvchilik faoliyati ham maqsad, usul, vosita, ob'ekt va sub'ekt majmuasidir. Pedagogik maqsad o'qitish, tarbiyalash asosida ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirishni, usul tarbiyalanuvchilar obro'siga, hurmatiga sazovor bo'lishni, pedagogik mehnat ob'ekti sifatida - O'qituvchining shaxsi (xarakteri, irodasi, hulq-odobi, tafakkuri va h.k.) Sub'ekt sifatida tarbiyalanuvchilarga ta'sir ko'rsatishni nazarda tutadi. o'qituvchi o'qituvchilarni borliq bilan tanishatirar ekan, ularga tabiat-jamiyat va tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlari haqida tushuncha berar ekan, avvalo mana shu jarayonlarini o'z faoliyatining ob'ektiga aylantiradi. Darhaqiqat, **pedagogik faoliyat** - bu o'qituvchining o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish, vazifalarini hal qilishga qaratilgan hamda pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalari bilan amalga oshiriladigan professional aktivligidir.

O'qituvchi mazkur faoliyat jarayonida o'qitadi, yo'l-yuriqlar ko'rsatadi, tarbiyalaydi, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil qiladi, Prezident, hO'qumat farmoyishlarini targ'ibot qiladi, o'z malakasini oshirish uchun mustaqil bilim olishni rejalashtiradi, oqibat natijada o'zi ham kamol topadi, o'quvchilarni ham kamol toptiradi.

Qayd qilib o'tilganlar bevosita va bilvosita pedagogik mahoratni shakllantirish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik faoliyat aniq ko'rinishda bo'lsa o'qituvchi o'qitish, tarbiyalash va shaxsiy sifatlarni rivojlantirish vazifalarini aniq hal etishga harakat qiladi. Mazkur jarayonda faoliyat aqliy-ruhiy jihatdan ta'sir ko'rsatish, natijalarni nazorat qilish, tahlil qilish va baholash hamda yangi vazifalarni belgilash uchun tayyorlanish bilan chegaralanadi. Bilimlarni o'zlashtirish natijasida o'quvchi shaxsining shakllanishi va rivojlanishi ta'minlanadi. Oqibat-natijada jamiyat talabi va vazifalari bajariladi. Bunday jarayonni tashkil qilish uchun o'qituvchi o'z oldiga turgan jamiyat talabiga molik bo'lgan vazifalarni anglashi, vaziyatni tushunishi, har bir o'quvchining o'zlashtirish jarayonini rivojlantirib, shaxs darajasiga ko'tarilish mezonlarini aniq ko'ra bilish imkoniyatiga ega bo'lmog'i darkor. Bu o'qituvchidan katta tajriba va bilim talab etadi. Buning uchun mahorat zarurdir. Pedagogik mahoratni egallagan o'qituvchi ko'p mehnat va kuch sarflab, yaxshi natijalarga erishadi. Yangilikka intilish, ijodkorlik doimo uning hamkori bo'ladi.

2.O'qituvchilik kasbining ijtimoiy-tarixiy rivoji va mazkur kasbning jamiyatda tutgan o'rni.

Har bir jamiyatda, oldingi to'zumlarda ham o'qituvchi ustoz muallim oldiga eng muhim vazifa jamiyat kelajagi bo'lgan yoshlarni tarbiyalash, ilm berish vazifasi qo'yilgan.

Hatto ibtidoiy jamoa to'zumi oxirlaridayoq yoshlarni tarbiyalash muassasalari tashkil etilib, ularda ancha tajribali, hayotni ko'rgan oqsoqollar bolalarni tarbiyalaganlar.

Quldorlik davrida esa quldorlarning bolalari uchun maxsus maktablar tashkil etilgan, qadimgi Grestiyada bolalarni o'qitadigan kishini didaskal ("o'qitaman", "o'rgataman") deb ataganlar. **O'g'il** bolalarni maktabga **qullardan** biri boshlab borgan, bunday **qul** pedagog ("paye") bola, "agogayin" etaklab bormoq deb atalgan.

Bu tushunchalar hozirda ham o'qituvchiga nisbatan ishlatilib kelinadi. Lekin uning mohiyati boshqacha ahamiyat kasb etadi.

Har bir jamiyatda ham pedagoglarga o'qituvchi tarbiyachilarga yoshlar murabbiysi sifatida katta hurmat bilan qarab kelingan.

Ayniqsa bizning mustaqil o'zbekistonimizda o'qituvchiga hurmat e'tibor va unga qo'yiladigan mas'uliyat ham nihoyatda oshib bormokda.

Hozirgi kunda o'zining fidokorona mehnati bilan yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash sifatini oshirishga katta hissa qo'shayotgan ijodkor o'qituvchilar soni yil sayin ortib bormokda. Mohir o'qituvchilarni aniqlash uchun o'tkazilayotgan tanlovlar ana shu yutuqlarga omil bo'lmoqda. Maktablarda metodist o'qituvchi, katta o'qituvchi, **O'zbekistonda** xizmat ko'rsatgan o'qituvchi, **O'zbekiston** xalq o'qituvchisi unvonlariga sazovor bo'lgan o'qituvchilar soni ko'paymoqda.

1997 yil 6 oktyabrda Prezidentimizning "Ta'lim - tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga etkazish to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilinib, bunda shunday deyiladi: "Ta'lim muassasalarida birinchi navbatda Oliy ta'lim muassasalari professor-pedagogik xodimlar safidan etuq o'qituvchi kadrlar tayyorlash ularni rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'limidagi ijobiy tajribalarini o'rganishi o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari bilan tanishishi va chet ellarda tajriba orttirishini ta'minlash maqsadida "Ustoz" respublika jamg'armasi tashkil etilsin".

O'qituvchilar safidan yuqori malakali kadrlar tayyorlashga ko'maklashish, **iqtidorli**, yosh pedagoglarni aniqlash, ularning iqtidori kasbiy malakasini yuksaltirish, rivojlangan demokratik davlatlarni etO'q o'qyv

yurtlarida va markazlarida tajriba orttirishga ko'maklashish maqsadida, bu jamg'arma to'zilan edi.

Umuman o'qituvchilar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ishi davlat va jamoatchilikning diqqat markazida turibdi. o'qituvchilarni falsafiy jihatdan keng fikrlovchi mushoxadali bo'lishlariga e'tibor berilayotir.

Bu g'amxo'rliklarga sabab, xalqimiz, millatimiz kelajagi ko'p jihatdan o'qituvchi, uning saviyasi, fidoyiligiga bog'liqdir.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida javob beradigan bolalarga ta'lim tarbiya berish maxsus tayyorlangan **insonlarning mehnat faoliyatidir**. Maktab o'qituvchilarning faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan.

Har bir bola o'z xulq atvoriga, xarakteriga ega. Tarbiyada ana shu xususiyatlarni hisobga olish kerak. Bunda odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning murakkabligini o'zida aks ettiruvchi maxsus usullardan foydalaniladi. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rayottan yoshlar ana shunday xususiyatlarni bilishi lozim. **O'qituvchilik ixtisosining bu xususiyatlari professiogrammasida ifodalanadi, professiogramma quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

1. **O'qituvchi** shaxsining xususiyatlari.
2. **O'qituvchining** ruhiy pedagogik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar.
3. Maxsus tayyorgarlikni hajmi va mazmuni.
4. Ixtisosga oid umumiy tayyorgarlikning mazmuni.

O'qituvchi shaxsining xususiyatlari:

G'oyaviy sohada: Ilmiy dunyoqarash va e'tiqod, ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatlarni chuqur tushunish, ijtimoiy va fuqarolik burchini anglash, ijtimoiy - siyosiy faollik.

Pedagoglik kasbi sohasida: bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik ishni sevish, ruhiy pedagogik ziyraklik va ko'zatuvchanlik, pedagogik nazokat, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik

qobiliyati, xaqqoniylik, dilkashlik, talabchanlik qatilylik va maqsadga intilish, vazminlik, o'zini tuta bilish kasbiy layoqatlilik.

Bilim sohasiga: keng ilmiy saviya, ma'naviy ehtiyoj va qiziqish, intellektual qiziqish, yangilikni his qila bilish.

Pedagogik faoliyatlar kishini o'ziga duch kelgan hodisalarni tahlil qilish va umulashtirish tajribasi bilan boyitadi.

Pedagogik malaka - egallagan bilim va kunikmalarni faoliyatning ma'lum turini egallab olish, yaxshi bajara olish qobiliyatidir.

O'qituvchi faoliyatiga oid bunday malakalarga quyidagilar kiradi:

a) amaliy konstrO'qtiv malakalar:

1. Amaliy tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish faoliyatining eng muhim qoidalarini tanlay bilish.

2. Har bir o'quvchiga nisbatan uni jamoa sharoitida tarbiyalashning individual rejasini amalga oshira bilish.

3. **O'quvchilarning** yosh va shaxsiy xususiyatlarini hicobra olgan holda, ularga nisbatan individual munosabatni amalga oshira bilish.

b) Tashkilotchilik malakalar:

1. o'quvchilar orasidagi aktiv bolalarni aniqlay bilish, tanlay bilish va ularni idora qilish.

2. o'quvchilarning turli xildagi jamoa individual holatini uyushtira bilish, ularni ijtimoiy aktivliklarini bilish.

3. o'quvchilarga berilgan jamoa ijtimoiy topshiriqlarini berilishi yuzasidan nazorat o'rnatish va ularga zarur vaqtda amaliy yordam berish.

4. o'zi rahbarlik qilgan sinfda amaliy ishlarni boshqarish.

5. ota-onalar va keng jamoatchilik o'rtasida ishlar tashkil eta bilishi, maktab rejimi shunday to'zilishi kerakki: bola maktabda yaxshi o'qisin, samarali xizmat qilsin, yaxshi dam olsin, hamma vaqt foydali va qiziqarli mashg'ulot bilan band bo'lsin, bunday faoliyatni uyushtirishga doir pedagogik talablar qo'yiladi.

O'qituvchi oldiga qo'yiladigan talablar:

1. Faoliyatdan kutilgan maqsadni o'quvchilar jamoasi ham alohida o'quvchi ham aniq his qilsin. (Masalan: metallom yig'ish bunga o'z xohishlari bilan kirishishlari lozim) .

2. Faoliyatni tashkil etish o'quvchilar tashabbusi va ijobiy faollikka suyanish lozim. Ishni taqsimlash, rejalashtirish, hisobga olish, natija chiqarish kabilarni o'quvchilarning o'zlariga havola qilish kerak.

3. **O'qituvchi** faoliyatiga pedagogik rahnamolik qiladi.

4. Faoliyat jarayonida har bir bola sohibkorlik va ijrochilik malakalarini egallab borishi.

5. Ish natijasini muhokama qilish, ishtirokchilarni rag'batlantirish.

Xo'sh pedagogik mahorat nima va u nimalardan tashkil topgan?

Bu fahm-farosat va bilimlarning chinakam ilmiyligi, tarbiyadagi qiyinchiliklarining engishga qodir bo'lgan nufo'zli rahbarlik bolalar qalbining qandayligini his qilish mahorati, ichki dunyosi nozik va zaif bo'lgan bola shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondashish, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziyaga bo'lgan qobiliyat mujassamdir.

Pedagogik mahoratga pedagogik bilimlar, fahm-farosat bilan bir qatorda pedagogik texnika sohasidagi malakalar ham kiradi, ular tarbiyaga ozroq kuch sarflab ko'prok natijalarga erishish imkonini beradi.

Har bir mohir pedagogning shunday zarur bo'lgan umumiy pedagogik malakalarni shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, mazkur masalalarni hal qilish pedagogdan odatdan tashqari kuch-g'ayratni, qatiyatni, tirishqoklikni, tadqiqotlarni olib borishga intilishni, yangi vaziyatga, yangi kollektivga kirish qobiliyatini, samimiyatni, to'g'rilik va halollikni, o'tkir aql-idrokni bir vositani boshqasi bilan tekshirib kurish malakasini talab qiladi.

A.S.Makarenko aytganidek, *"Agar pedagog mahoratni egallamas ekan, agar u bolalar muhitidagi ilg'or kuchlarga tayana olmas ekan, ularning o'stirishini rag'batlantirib, eng yaxshi faoliyatlarini rivojlantira olmas ekan, u muqarrar ravishda shaxsiy ta'sir ko'rsatishni mutloqlashtirib boradi, ya'ni o'ziga eng oson yo'lni tanlaydi.*

CHinakam mahorat bilan obrutalablik bir biri bilan sig'isha olmaydi. Agar chinakam mahoratli pedagog hamma vaqt munosabatlar sistemasi bolalarning ijodiy kamolatiga yordam berishi lozimligini uylasa obrutalab pedagog ularning mustaqil faoliyatini nihoyatda toraytirib, ularning so'zsiz qo'loq solishlarini yoqtiradi, bu bilan bolalar muhitidagi tarqoqlikka ko'maklashadi."

Pedagogik mahorat o'ziga bolalar haqidagi ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyatni tashkil etadi, o'qituvchi-tarbiyachi bu madaniyatni egallamas ekan hech vaqt o'z kasbining chinakam ustasi bo'la olmaydi.

Zamonaviy o'qituvchiga birgina umumiy madaniyatning o'zi kifoya qilmaydi. Bolalarni ko'zatish, ularni o'sishidagi muhim narsalarni jamiyatda vujudga kelgan asosiy g'oyalar bilan taqqoslash, ularni rivojlanish yo'llari va usullarini aniqlash turli vositalar, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullarining o'zaro bir-biriga o'tishi dialektikasini chuqur tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir sistemaga solish malakalari zarur bo'ladi.

Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

- a) o'qituvchi faoliyatining insonparvarlik yo'nalishi;
- b) ixtisosga doir bilimlar mutaxassislik fanini, uni o'qitish metodikasini pedagogika va psixologiyani chuqur bilish;
- v) pedagogik qobiliyat (bilish, tushuntira olish, ko'zatuvchanlik, obru orttira olish, to'g'ri muomala qila olish, kelajakni ko'ra bilish, diqqatni taqsimlay olish qobiliyatlari va pedagogik nazokat odob-axloq);
- g) pedagogik texnika (nutq malakasi, mimik pontamimik ifodaliligi, o'z hissiy holatini boshqarishi.)

"Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir",- degan edi milliy tarbiyamiz daxolaridan

biri A.Avloniy. Hayot, najot, saodatga eltuvchi ish, tarbiyani amalga oshiruvchi zot - o'qituvchidir.

Bolalarga yaxshilik qilish va mehribonlik ichki kechinma va holatigina emas, balki pedagogik faoliyatimizdagi bola bilan yoki sinf bilan munosabatdagi asosiy motiv, asosiy rag'bat bo'lishi kerak. Bolalarga yaxshilik qilishimiz va mehribonligimiz, ular bilan qo'pol muomalada bo'lishimizga, ularning nafsoniyatini va qadr-qimmatini siqishtirishga, ularga baqirish va ularni qo'rqitish, ulardan har birining qayg'u alamini sezmaslikka va har biri erishgan yutug'idan xursand bo'lmaslikka ularga yordamga kelmasligimizga ishonchsizlik kursatishimizga yo'l qo'ymaydi. Bolani butun qalbi bilan sevadigan mehri daryo pedagog ko'proq tabassum qiladi, kamroq qovoq soladi, u chinakam pedagogik hayot kechiradi, shu tariqa professional baxtiga erishali.

Insonparvar pedagog bolalarni bilim bilan tanishtirayotganda ayni vaqtda ularga o'z xarakterini bera oladi, ularga odamiylik namunasi bo'lib ko'rinadi. Bola uchun o'qituvchisiz bilim yo'q.

SHuning uchun bola o'qituvchisini yaxshi ko'rib qolsa, demak u bilimga qiziqib qoladi. Bolalar mehrini qozonmoq o'qituvchining zarur ishi, faqat o'z o'qituvchisini yaxshi ko'rgan bola bilimlar olamiga kirib boradi. Jamiyatdagi ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtira boradi.

Ta'lim va tarbiya metodlari, usullari, formalari pedagogning bolalarga mehr-muhabbatidan harorat oladi va insonparvarlik hissi to'la qalbidan o'tib takomillashadi.

Avvalambor, o'qituvchining o'zi bir shaxsiyat bo'lishi kerak, negaki shaxsiyatni faqat shaxsiyattina tarbiyalab berishi kerak. Insonparvarlikni faqat qalb mehrigina berishi mumkin. U albatta keng ma'lumotli ijodiy kishi bo'lishi kerak, negaki bilim ishtiyoqini faqat shu ishtiyoqda yongan kishiga yoqishi mumkin.

Bizning jamiyatda o'qituvchi bolalarni kelajak haqidagi orzu -umidlar bilan ruhlantirishga kelajak ideallarini hozirdan mustahkamlashni ularga o'rgatish, kelajak bolalar qoshiga kelgan kishidir.

Pedagogik mahorat-bu pedagogik (o'quv tarbiyaviy) jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashqil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'llantirish, tarbiyalanuvchilarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish va ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uy'otishdir.

3. Pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari.

Inson faoliyatining boshqa turlari kabi pedagogik faoliyat ham o'z xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turuvchi: maqsad, ob'ekt va sub'ekt va vositalardan tashqil topadi.

Eng avvalo, **pedagogik maqsadning o'ziga xosligini tushunishiga harakat qilamiz. Ular quyidagilardan iborat:**

1. Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya'ni pedagog faoliyatning natijasi jamiyat manfaatlari bilan bo'liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy o'zviyligini (ketma-ketligini) ta'minlaydi, bir avlod tajribasini ikkinchi avlodga o'tkazadi, yoshlarni ijtimoiy munosabatlar tomon yo'llaydi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi.

2. Pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bo'liq. Bunda pedagogik maqsad o'quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Unga erishishi osonlikcha bo'lmaydi. Pedagog o'z faoliyati maqsadini va unga erishish yo'llarini aniq tasavvur qilish va maqsadga erishish o'quvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olish zarur. Gyote ta'kidlaganidek, "Ishonch bilan gapir, ana shunda so'z ham, tinglovchilarni mahliyo qilishi ham o'z-o'zidan kelaveradi".

3. Pedagogik (ta'lim, tarbiya) jarayonida o'quvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki-pedagog maqsadi doimo o'quvchi

kelajagi tomon yo'naltirilgan bo'ladi. Bu maqsadni o'quvchidan ko'ra pedagog yaqqolroq tasavvur qiladi. O'quvchi esa ko'p hollarda, hayotiy tajribasi etishmasligi sababli hozirgi hayot, shu bugun tashvishlari bilan yashaydi, kelajakni esa to'la tasavvur qila olmaydi. Bunyodkor pedagoglardan biri SH. A. Amonashvili bu nomuvofiqlikni "tarbiyadagi asosiy fojia" deb ataydi. Buni anglagan holda, mohir pedagoglar o'z faoliyati manti'ini o'quvchilar ehtiyojlariga muvofiq holda loyihalaydilar. Hamkorlik pedagogikasining tub mohiyatii ham ana shundan iborat.

SHunday qilib, **pedagogik faoliyat maqsadining o'ziga xosligi o'qituvchidan quyidagilarni talab qiladi:**

- jamiyatning ijtimoiy vazifalarini (masalan, muxandis-pedagoglar tayyorlashni) to'la anglab, o'z shaxsiga qabo'l qilishi. Jamiyat maqsadlarining "o'sib", uning pedagogik nuqtai nazariga aylanishi;
- muayyan harakat va vazifalarga ijodiy yondoshishi;
- o'quvchilar qiziqishlarini e'tiborga olish, ularni pedagogik faoliyatning belgilangan maqsadlariga aylantirish. O'quvchilar bilan kasbga yo'naltirish ishlarini olib borishda bunga e'tibor berish zarur.

Endi pedagogik faoliyat ob'ektining o'ziga xosligini ko'rib chiqamiz. Bu faoliyatining ob'ekti insondir. Pedagog- tadqiqotchilarning fikricha, **pedagogik ob'ekti**ning o'ziga xosligi quyidagilardan iborat:

1. Inson-tabi'atning jonsiz moddasi emas, balki o'zining individual sifatlari, ro'y berayotgan voqealarning idrok qilishi va ularga o'zicha baho beradigan, takrorlanmaydigan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta'kidlanganidek, har bir shaxs-takrorlanmasdir". U pedagogik jarayonning o'z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo'lgan ishtirokchisi hamdir. SHunday qilib, pedagogik faoliyatning ob'ekti bir paytning o'zida bu faoliyatning sub'ekti bo'lib hisoblanadi.

2. Pedagog doimo o'zgarib, o'sib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondoshishda bir xil qolip, shakllanib qolgan hatti-harakatlardan

foydalanish mumkin emas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

3. O'quvchilarga pedagogdan tashqari atrof-muhit, ota-ona, boshqa fan o'qituvchilari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy hayot ham, ba'zan sezilmaydigan, ba'zan esa har tomonlama bir necha yo'nalishda ta'sir etadi. SHuning uchun ham pedagog mehnati bir vaqtning o'zida jamiki ta'sirlarga va o'quvchining o'zida paydo bo'lgan fikrlarga to'zatishlar kiritib borishni nazarda to'tadi. Masalan, diniy ekstremizm va boshqa oqimlarga kirib ketgan yoshlarning adashganligini tushuntirish, ommaviy axborot vositalari orqali berilayotgan axborotlarni to'g'ri anglashga undash va h. k. Tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash bilan uy'unlashgan holda olib borilishi zarur.

Umuman olganda, hozirgi zamon pedagogikasi hamkorlik pedagogikasi bo'lib, u o'quv yurtidagi tarbiyaviy munosabatlarning insonparvarlashuvi va demokratlashuviga yo'naltirilgan. Bunda o'quvchilar faolligini oshirish, ularni pedagogik jarayonning ishtirokchisiga, o'qituvchining esa uning mehribon ustoziga aylantirish muhimdir. Zero, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'kidlanganidek, ta'lim jarayonining demokrat-lashtirish va insonparvarlashtirish, mamlakatimiz ta'lim tizimini tashkil etishning asosiy printsiplaridan biridir.

Hamkorlik pedagogikasining tub mohiyati nimada?

Pedagogik faoliyatining sub'ekti-tarbiyalanuvchilarga asosan-pedagog, ota-ona va o'quvchilar jamoasi ta'sir ko'rsatadilar. O'qituvchining shaxsi, bilimi va madaniyati o'quvchilarga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy qurol bo'lib hisoblanadi. Agar o'quvchi pedagog shaxsini o'ziga qabo'l qilmasa (unga hissiy yaqinlik his etmasa), uning ta'siriga berilmaydi, qaysarlik qiladi, uni hurmat qilmaydi. O'quvchi shaxsiga doimo ijobiy-axloqiy ta'sir ko'rsata oladigan kishigina haqiqiy tarbiyachidir. Bunga erishish uchun pedagog o'zining ahloqiy sifatlarini doimo takomillashtirib borishi zarur. Pedagog

tomonidan sodir etilgan arziyas bo'lsa-da ahloqsizlik, uning o'quvchilar o'rtasida misqollab yilgan obro'siga jiddiy putur etkazishi muqarrar. O'quvchilarni mehnat, muloqot, o'yin, o'qish kabi faoliyat turlarida ishtirok etishlari tarbiyaning asosiy vositasi bo'lib hisoblanadi. A. S. Makarenko o'zining tarbiyaviy sistemasining markazi sifatida o'quvchilarni unumli mehnatda ishtirok etishlarini qo'yadi. Hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini maxsulot yaratuvchi mehnatga jalb qilib, uning natijasidan bahramand qilishda ham bu sistema yaxshi samara beradi. Donetsklik maktab o'qituvchisi V. F. SHatalov tayanch signallardan unumli foydalangan. CHortoq tumanidagi kasb-hunar listeyi ishlab chiqarish ta'limi ustasi A. Holiqov pedagogik o'yinlardan samarali foydalanib, o'quvchilarga puxta kasbiy malaka berishga erishmoqda. Bunday misollarni juda ko'p keltirish mumkin. Demak, har bir mohir pedagog o'zining individual pedagogik sistemasiga ega bo'lishi zarur.

4. Pedagogik mahorat-sistemi va uning tashkil etuvchilari.

Ayrim pedagoglar kasbiy mahorat sirlarini egallash uchun avvalo ta'lim va tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida pedagog o'z o'quvchilarini turli o'quv faoliyatiga jalb qiladi. Bu bilan o'quvchilarda muayyan bilim, ko'nikma, malakalar va xulqni shakllantiradi.

Lekin, aynan bir xil metod bilan ishlagan turli o'qituvchilarning erishgan natijalari ham turlicha bo'lishi aniqlangan. Buning ustiga, sinovdan o'tkazilgan metodlardan foydalangan bo'lsalarda, ayrim o'qituvchilar, hatto eng quyi darajadagi o'zlashtirish natijalariga ham erisha olmaganlar. Bunday o'qituvchilar: "Hamma narsani metodik tavsiya asosida bajardim, nima uchun bolalar mavqiy solish, qaysarlikni va dars tayyorlamaslikni yana davom ettirmoqdalar?"- deb hayron bo'ladilar. Gap shundaki, o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirishda o'qituvchi tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta'sir ko'rsatadi.

Pedagog faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, harakteri, o'quvchilar bilan muomilasiga ham ko'p jihatdan bo'liq bo'ladi. Lekin, odatda bo'larning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Lekin, tajribali pedagog uning hatti-harakati o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatganligiga ahamiyat berib, unga kerakli to'zatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. Bunday o'qituvchilarning ilhombaxsh muammolaridan o'quvchilarda o'qishga intilish o'zlarida yanada yaxshiroq o'qishni uddalay olishiga ishonch hissi paydo bo'ladi. Bu holda ta'lim va tarbiya metodlari pedagog shaxsida mujassamlangan sifatlarni amalga oshirish va undan o'quvchiga axloqiy fazilatlarni o'tkazish vositasiga aylanadi. SHuning uchun ham, pedagogik mahoratni o'qituvchi shaxsi sifatlarining majmui sifatida qarab, uni o'qituvchi yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi bilan bo'liq bo'lishini e'tirof etish lozim.

Demak, pedagogik mahorat tushunchasi bir-biri bilan bo'liq bo'lgan bir necha qismlardan tashqil topar ekan. Bunday holda pedagogik mahoratni «pedagogik sistema» sifatida tasavvur qilinadi va u quyidagicha ta'riflanadi: «Pedagogik mahorat shaxs sifatleri majmui va o'qituvchi tomonidan professional-pedagogik faoliyatni mustaqil ravishda yuqori saviyada tashqil etishni ta'minlash bo'lib, u pedagogni o'z faoliyati mohirligining eng yuqori cho'qqisiga erishganligini bildiradi». Bundan ko'rinib turibdiki, pedagogik mahorat-bu pedagogik faoliyatning barcha turlarini eng qulay va samarali holatda tashqil etish, ularni shaxs kamoloti va har tomnlama rivojlantirish maqsadlariga yo'naltirish, o'quvchilarda dunyoqarash qobiliyatni shakllantirish va ularda ijtimioiy zarur mehnatga moyillik uy'otishdir.

Muhandis-muallim pedagogik mahorati nazariyasini yaratishda Ural davlat professional-pedagogik universitet olimlari (BezrO'qova V.S., Romantsev G.M., Tkachenko E.V., Zeer E.F) munosib hissa qo'shganlar. O'zbyokistonda bu masala bo'yicha pedagog olimlardan Jo'raev R.X., Nishonaliev U.N., Mirsaidov K.J., CHoriev E.T. va boshqalar samarali ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Pedagogik mahorat yaxlit sistema sifatida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: pedagog shaxsining insonparvarlik yo`nalishiga ega bo`lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo`nalishlari va ideallarining oliy maqsadga-barkamol avlod tarbiyalab etishtirishga yo`naltirilganligi; mutaxassislik fanlari, o`qitish metodikasi, pedagogika va psixologiyadan professional bilimlarga ega bo`lishi;

pedagogik qobiliyatga ega bo`lishi (muloqotga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash («yuzidan uqib olish»)); pedagogik texnikani egallashi, ya'ni o`z-o`zini boshqara olishi, o`zaro ta'sir etish va hamkorlikda ishlashni uddalashi.

Pedagog shaxsining insonparvarlik yo`nalishiga ega bo`lishi-o`quvchi shaxsini hurmat qilish, ayrim masalalarni-o`zini o`quvchi o`rnida sezib hal etishi, adolatli bo`lishi, pedagogik faoliyatni pirovard maqsadga – barkamol avlod tarbiyalashga yo`naltirishda ifodalanadi. O`z davrida Ibn Sino ham o`qituvchi shaxsida halollik, adolat, poklik, mehnatsevarlik, fidoiylilik, odamgarchilik kabi xislatlarni qadrlagan.

Insonparvar bo`lish mahoratli pedagog faoliyatining bircha jihatlarini qamrab oladi va uning aniq vazifalarini ham belgilab beradi. +uyidagi holatni tahlil qilaylik. YOsh o`qituvchi bolalarni Temuriylar mo`zeyiga olib bordi, Lekin «Nima uchun Amir Temur haqida o`quvchilarga so`zlab berish kerak?»-degan savolga javob topolmaydi. Mahoratli pedagog esa, bu sayohatahamiyatini butunlay boshqacha tushunib, u o`quvchilarda tariximizni bilish, uni ardoqlash, ulu\ ajdodlarimiz borligi bilan quvonish va nihoyat milliy \urur vujudga keltirishda katta ahamiyatga ega ekanligi haqida to`lqinlanib gapiradi.

Pedagog shaxsining insonparvarlik yo`nalishiga ega bo`lishi, ba'zan uning egallagan nuqtai nazarda ham namoyon bo`ladi. Masalan, birinchi kurs o`quvchilarini ertaga yana paxta terimiga olib chiqish kerak, Lekin o`quvchilar: «Biz bormaymiz, chunki oldingi O`qlarda terga paxtamiz dalada chirib ketyapti, uni olib ketishmadi» - deb qaysarlik qilishadi. Pedagog o`quvchilarning haqligini sezib tursada, «Yo`q chiqishingiz shart, paxtani olib ketishi bilan ishlaring bo`lmasin»-deb o`z fikridan qaytmayapti.

Bunday nuqtai nazarda to'rgan pedagogda odamiylik, insonparvarlik etishmasligini yaqqol ko'rish mumkin. U hamkorlikda harakat qilib, paxtani tezroq olib ketilishi haqida fikr yuritisa, maqsadga muvofiq balar edi.

Professional bilimlar pedagogik mahoratning tub asosini tashqil qiladi. Pedagog bilimi, bir tomondan u dars berayotgan fan to'risidagi bilimiga, ikkinchi tomondan esa, uni o'zlashtirayotgan o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'zi dars berayotgan fanni, o'ni o'qitish metodikasi, pedagogika va psixologiya fanlaridan puxta bilimga ega bo'lishi, pedagog professional bilimlari mazmunini tashqil etadi. Professional-pedagogik bilimlarni o'ziga xosligi, ularni kompleks harakterga ega bo'lishi va har bir o'quvchida shaxsiy «ohang» kasb etishidir.

Professional bilimlar negizida pedagog hatti-harakati va xulqining asosini tashqil etuvchi pedagogik printsiplar va qoidalar vujudga keladi. Bu printsipl va qoidalarni har bir pedagog o'z tajribasiga tayangan holda yaratadi, Lekin ularning qonuniyatlarini ilmiy bilim yordamida aniqlaydi. Bu bilimlar doimo takomillashib borishi zarur. Buyuk pedagog A.Desterveg ta'kidlaganidek, «Ilmiy izlanishga intilmagan o'qituvchi tavakkaliga ishlash, odddiylik va soxatlik kabi pedagogiqadan ozdiruvchi shaytonlar qa'riga mahkum bo'ladi».

Pedagogik qobiliyatlar, pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli o'tishiga ta'sir ko'rsatuvchi psixik jarayonlarni qanday kechayotganligini bildiradi. Bir qator olimlarning ilmiy tadqiqot natijalariga asoslangan holda, oltita etakchi pedagogik qobiliyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Kommunikativlik (muloqotga moyillik), odamlarga nisbatan ko'ngilchan bo'lish, mehribonlik;
2. Aql bilan sezish-kasbiy ziyraklik, boshqalarga hamdard bo'lish, ichki (hissiy) sezgirlik;
3. SHaxsning harakatchanligi, irodaviy ta'sir ko'rsatish va mantiqiy ishontirish qobiliyatlari;
4. Hissiy barqarorlik-o'zini boshqara olishi;
5. Kelajakni eng maqbo'l holda bashorat qilish;
6. Kasbiy mustaqillik-ijod qilishi qobiliyati.

Pedagogik texnika ikki turdagi ko'nikmalar guruhidan iborat. Birinchisi-o'zini o'zi (gavdasi, hissiy holati va nutq texnikasi) boshqara olishi, ikkinchisi- pedagogik vazifalarni hal etishda o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlashni uddalash (didaktik, tashqilotchilik malakalari, bevosita ta'sir etish texnikasi), bu haqda keyingi ma'ro'zalarda batafsil to'xtalamiz.

Pedagogik mahoratning biz yuqorida ko'rib chiqqan tarkibiy qismlari, uni sistemaviy harakterga ega ekanligini anglatadi. Pedagogik mahoratning yaqqol tashqi belgilari: faoliyatni aniq maqsadga yo'naltirilganligi, vazminlik, mulohaza yuritish, o'quvchilar bilimini puxtaligi, eng maqbo'l vositalarni tanlanganligi, o'z faoliyatiga ijodiy yondoshuvi.

Muhandis-pedagog o'z maxoratiga quyidagi bosqichlarda erishishi mumkin:

Psixologiya va pedagogika turkumidagi fanlarni chuqur o'rganish;

Maxsus va umumtexnik fanlar, ularni o'qitish metodikasidan puxta bilimga ega bo'lish;

Pedagogik amaliyotda faol ishtirok etish va uni samarali o'tkazish;

O'z faoliyatini doimo taxlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish, boshqalar tajribasini o'rganish;

O'z ustida mustaqil ishlash, malaka oshirish kurslarida o'qib borish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: SHarq 1997-64 b.
2. N.P.Anikeeva. Jamoadagi ruhiy muhit T.: «O‘qituvchi» 1993. 256 b.
3. Osnova pedagogicheskogo masterstva Pod redakstiey.
4. A. Zyazuna. M.: Prosveshchenie. 1989. - 302 s.
5. V.A.Kan-Kalik., N.D.Nikandrov. Pedagogicheskoe tvorchestvo M.: Pedagogika. 1990. 144 s.